



## 2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari



Jori yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatida jami **3 425,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **99,2 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda**



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1556 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **105,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **119,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **107,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,3 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
	Navoiy viloyati	1447	1556	107,5
	Navoiy sh.	418	426	101,9
	Zarafshon sh.	117	131	112,0
	<b>tumanlar:</b>			
	Karmana	232	254	109,5
	Konimex	27	38	140,7
	Qiziltepa	200	229	114,5
	Navbahor	170	187	110,0
	Nurota	104	99	95,2
	Tomdi	33	41	124,2
	Uchquduq	53	53	100,0
	Xatirchi	93	98	105,4


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,4 %), Karmana (16,3 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **732,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **75,5** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **6,8** punktga kamayib, **21,4** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **69,0** % i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **18,1** % kamaygan), Navoiy shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,4** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,7** % kamaygan), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,2** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,3** % ko'paygan) ga to'g'ri keldi.




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,7 %** i to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **8,9** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **118,5 %** ni tashkil etgan holda **1 909,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi yoki **783,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **89,8 %** ni tashkil etdi.*

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **733,3** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 692,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **21,4 %** va **78,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 425,3</b>	<b>733,3</b>	<b>100,0</b>	<b>2692,0</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	817,3	139,6	19,1	677,7	25,2
Zarafshon sh.	801,4	513,8	70,1	287,6	10,7
tumanlar:					
Karmana	428,6	30,7	4,2	397,9	14,8
Konimex	71,4	3,0	0,4	68,4	2,5
Qiziltepa	500,5	3,9	0,5	496,6	18,4
Navbahor	262,8	2,5	0,3	260,3	9,7
Nurota	158,1	1,5	0,2	156,6	5,8
Tomdi	25,6	5,3	0,7	20,3	0,8
Uchquduq	44,8	8,1	1,1	36,7	1,4
Xatirchi	314,8	24,9	3,4	289,9	10,7

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,7 % i yoki **2 320,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

67,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **620,0** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 26,7 % ni tashkil etdi

26,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1054,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.

45,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **646,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

27,9 %




**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 425,3</b>	<b>99,2</b>	<b>2 320,6</b>
Navoiy sh.	817,3	98,9	800,6
Zarafshon sh.	801,4	95,8	132,3
tumanlar:			
Karmana	428,6	99,7	257,6
Konimex	71,4	98,7	23,2
Qiziltepa	500,5	99,7	485,0
Navbahor	262,8	100,7	204,2
Nurota	158,1	100,9	157,8
Tomdi	25,6	100,3	18,5
Uchquduq	44,8	103,9	41,8
Xatirchi	314,8	105,4	199,6

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **19,9 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9** punktga ko'payib, **49,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga kamayib, **30,3 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **31,2 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,6 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **68,8 %** (**14,6 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **21,4 %** kamaydi va **39,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **21,8 %** ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 425,3</b>	<b>2578,4</b>	<b>465,0</b>	<b>381,9</b>
Navoiy sh.	817,3	653,6	65,4	98,3
Zarafshon sh.	801,4	566,5	122,1	112,8
tumanlar:				
Karmana	428,6	321,8	65,2	41,6
Konimex	71,4	53,5	12,9	5,0
Qiziltepa	500,5	350,0	85,8	64,7
Navbahor	262,8	227,4	17,5	17,9
Nurota	158,1	137,6	6,6	13,9
Tomdi	25,6	6,9	9,5	9,2
Uchquduq	44,8	26,3	11,8	6,7
Xatirchi	314,8	234,8	68,2	11,8

\*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

**Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da**



- Navoiy sh.
- Zarafshon sh.
- Karmana t.
- Konimex t.
- Qiziltepa t.
- Navbahor t.
- Nurota t.
- Tomdi t.
- Uchquduq t.
- Xatirchi t.

**Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,0 % i yoki **137,6** mlrd. so'm), shuningdek, Navbahor tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,5 % i yoki **227,4** mlrd. so'm), Navoiy shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 80,0 % i yoki **623,1** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 37,1 % i yoki **9,5** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,3 % i yoki **11,8** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 21,7 % yoki **68,2** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,  
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,  
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 35,9 % i yoki **9,7** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 15,0 % i yoki **6,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,1 % i yoki **112,8** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahar (817,3 mlrd. so'm), Zarafshon shahar (801,4 mlrd. so'm), Qiziltepa (500,5 mlrd. so'm), Karmana (428,6 mlrd. so'm) tumaniga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Tel.: (71) 202-84-46;  
(79) 223-54-73